Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich (Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi; mirobidsulaymonov@gmail.com)

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB, "AXBOROT XAVFSIZLIGI" MAVZUSINI O'QITISH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda axborot xavfsizligi mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi chuqur tadqiq qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarning internet xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini didaktik o'yinlar orqali oshirish, shuningdek, ularga amaliy hayotda axborot xavfsizligi qoidalarini qo'llash imkoniyatini berishdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yin shaklida tashkil etilgan mashg'ulotlar an'anaviy usullarga qaraganda ko'proq samara beradi. Maqolada, shuningdek, boshlang'ich ta'limda axborot xavfsizligini o'rgatishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun didaktik o'yinlarning ahamiyati ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarning axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan. Ushbu yondashuvlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot xavfsizligi sohasidagi bilimlari va shu sohaga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, parol xavfsizligi, xavfli havolalardan saqlanish va ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz harakat qilish kabi muhim masalalar bo'yicha bilimlari o'rganilgan. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni qanday qo'llash kerakligini ham o'rganishgan. Bu usul bolalarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash va muhokama qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, o'yin, baholash, axborot xavfsizligi, o'quvchi, o'qituvchi, rolli o'yin, ssenariy, viktorina, natija, didaktik o'yinlar.*

ПРИМЕНЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР ПРИ ОБЪЯСНЕНИИ ТЕМЫ «ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ» УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация*. В данной статье глубоко исследована эффективность использования дидактических игр при обучении теме информационной безопасности в начальных классах. Основная цель исследования заключается в повышении знаний и навыков учащихся в области интернет-безопасности через дидактические игры, а также в предоставлении им возможности применять правила информационной безопасности в повседневной жизни. Результаты исследования показали, что занятия, проведенные в игровой форме, являются более эффективными по сравнению с традиционными методами. В статье также подчеркивается важность использования инновационных подходов в обучении информационной безопасности в начальной школе, чтобы сделать учебный процесс более интересным и эффективным. На основе результатов исследования предложены рекомендации, направленные на укрепление знаний учащихся в области информационной безопасности и развитие навыков их применения в практической жизни. С помощью такого подхода можно значительно повысить уровень знаний учащихся начальных классов в области информационной безопасности и их интерес к данной теме. Кроме того, в ходе исследования были изучены знания учащихся по таким важным вопросам, как защита личных данных, безопасность паролей, избежание опасных ссылок и безопасное поведение в социальных сетях. Благодаря дидактическим играм учащиеся не только усваивали теоретические знания, но и учились тому, как их применять. Этот метод способствует повышению интереса детей к теме, а также развивает их способность к самостоятельному мышлению и обсуждению. В результате учащиеся не только приобретают знания, но и осваивают навыки их применения в реальной жизни.*

Ключевые слова: *образование, игра, оценивание, информационная безопасность, ученик, учитель, ролевая игра, сценарий, викторина, результат.*

USE OF DIDACTIC GAMES IN EXPLAINING THE TOPIC "INFORMATION SECURITY" TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *This article thoroughly examines the effectiveness of using didactic games in teaching the topic of information security in primary school. The main goal of the research is to enhance students' knowledge and skills in the field of internet safety through didactic games, as well as to provide them with the opportunity to apply information security rules in their daily lives. The results of the study showed that lessons conducted in a game-based format are more effective compared to traditional methods. The article*

also emphasizes the importance of using innovative approaches in teaching information security in primary school to make the learning process more engaging and effective. Based on the research findings, recommendations are proposed aimed at strengthening students' knowledge in the field of information security and developing their ability to apply this knowledge in practical life. Through this approach, it is possible to significantly improve the level of knowledge and interest of primary school students in the field of information security. Additionally, the study explored students' understanding of important issues such as protecting personal data, password security, avoiding dangerous links, and safe behavior on social networks. Through didactic games, students not only acquired theoretical knowledge but also learned how to apply it. This method fosters children's interest in the topic and develops their ability to think independently and engage in discussions. As a result, students not only gain knowledge but also master the skills to apply it in real-life situations.

Keywords: *education, game, assessment, information security, student, teacher, role-playing game, scenario, quiz, result.*

Kirish. Hozirgi axborot asrida bolalarning internet va texnologiyalarga erta qiziqishi ularning axborot xavfsizligi bilan bog‘liq bilimlarini oshirishni zaruriyati tug‘iladi. Shunday ekan, yoshlarimizni axborotlar bilan ishlashda turli soxta ma’lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, uning mazmunini tushunish, do‘stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishda, axborot madaniyatini oshirishimiz kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanlar orqali axborot xavfsizligi tushunchalarini berish va didaktik o‘yinlar orqali o‘qitishimiz samarali natijalar beradi. Ushbu maqolada axborot xavfsizligi mavzusini o‘qitishda o‘yinli darslardan foydalanish imkoniyatlari, tadqiqot metodologiyasi, natijalar va takliflar muhokama qilinadi.

Asosi qisim. Axborot xavfsizligi mavzusi bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular, asosan, kattalar va yuqori sinf o‘quvchilariga qaratilgan. Biroq boshlang‘ich sinflar uchun e’tibor to‘liq qaratilmagan. Ushbu axborot xavfsizligi mavzuni qiziqarli va oson usulda tushuntirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalari orqali ta’lim berish nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Xususan, Piaget va Vigotskyning konstruktivizm nazariyalari bolalarning o‘yinda faol ishtirok etishi orqali yanada yaxshi o‘rganishini tasdiqlaydi. Jan Piaget va Lev Vigotskiyning konstruktivizm nazariyalari bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, O‘zbekistonda bu nazariyalar ta’lim jarayonida qo‘llanilib, pedagogik tadqiqotlarda tahlil qilinmoqda. “Professional ta’lim” jurnalining 2023-yil 5-sonida Piaget va Vigotskiy kabi ta’lim faylasuflarining ishlari pedagogik tadqiqotlar va natijalarini qayta ishlab chiqish va tahlil qilishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan. Shuningdek, 2023-yil 9-sonida chop etilgan maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalarining markazida Piaget va Vigotskiyga tegishli konstruktivistik ta’lim nazariyasi yotishi qayd etilgan [1]. Bundan tashqari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ham Bruner, Piaget va Vigotskiy kabi olimlarning ishlari ta’lim sohasidagi asosiy nazariyalar va metodlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan [2].

Ushbu tadqiqot eksperimental va nazariy tahlil usullariga asoslangan. Eksperiment sifatida boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanlar darsida axborot xavfsizligi bo‘yicha didaktik o‘yinlar qo‘llanildi. Biz bu tadqiqotimizda quyidagi bosqichlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, o‘quvchilar uchun mos keladigan o‘yin turlarini aniqlash kerak, masalan, rolli o‘yinlari bunda o‘quvchilar turli vaziyatlarni jonlantirib, internet xavfsizligi qoidalarini muhokama qilishadi. Bu borada xorijiy davlatlar ta’lim tizimida internet xavfsizligi bo‘yicha rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu o‘yinlar o‘quvchilarga internetdagi xavf-xatarlarni tushunish va ulardan himoyalanish usullarini o‘rgatishga qaratilgan. xorijiy davlatlarda internet xavfsizligi bo‘yicha rolli o‘yinlarda muhokama qilinadigan asosiy qoidalar quyidagilardan iborat [3]:

– o‘quvchilar o‘yin davomida o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini (ism, manzil, telefon raqami va boshqalar) begonalarga oshkor qilmaslik muhimligini o‘rganadilar;

– o‘yinlar orqali o‘quvchilarga kuchli va ishonchli parollar yaratish, ularni muntazam ravishda yangilab turish va boshqalar bilan bo‘lishmaslik qoidalari tushuntiriladi;

– o‘quvchilar internetda boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, kiberhujumlar va kamsitishlardan saqlanish qoidalarini muhokama qiladilar;

– o‘yinlar orqali o‘quvchilarga noma’lum manbalardan kelgan havolalar va fayllarni ochmaslik, bu orqali zararli dasturlardan saqlanish usullari o‘rgatiladi.

– o‘quvchilar internetda yangi tanishlar bilan muloqot qilishda ehtiyotkor bo‘lish, real hayotda uchrashuvlardan saqlanish kabi qoidalarni muhokama qiladilar [4].

Ushbu rolli o‘yinlar o‘quvchilarning internet xavfsizligi bo‘yicha bilimlarini oshirishga yordam beradi va ularni onlayn muhitda xavfsiz harakat qilishga tayyorlaydi. Biz ham ta’lim tizimimizda o‘quvchilarga internet xavfsizligi qoidalarini tushuntirish, onlayn xavf-xatarlarni aniqlash va ulardan himoyalanish yo‘llarini o‘rgatish hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishimiz kerak. Buning uchun biz rolli o‘yin ssenariy asosida vaziyatlar yaratish texnologiyasida dars mashg‘ulotlarini o‘tishimiz kerak, bunga kerakli materiallar sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin:

– savol va javoblar kartochkalari;
– rolli o‘yin ssenariylari yozilgan qog‘ozlar;
– doska va markerlar.



1-rasm. Maktabda rolli o‘yin faoliyati.

Darsning o‘tilishiga qaraydigan bo‘lsak, kirish qismida o‘qituvchi o‘quvchilarga internet xavfsizligi muhimligi haqida qisqacha tushuncha beradi. O‘quvchilar turli rollarga bo‘linadilar “Foydalanuvchi, xavfli xabar jo‘natuvchi, do‘st, ota-ona, maslahatchi va boshqa qahramonlar bo‘lish mumkin [5].

Ssenariy bo‘yicha o‘yin o‘tkazishda o‘quvchilar oldindan tayyorlangan turli internet xavfsizligi bilan bog‘liq vaziyatlarni jonlantiradilar. Masalan, kimdir begona shaxsdan do‘stlik so‘rovini qabul qiladi va shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qiladi. Boshqa o‘quvchilar ushbu vaziyatga qanday to‘g‘ri javob berish mumkinligini muhokama qiladilar.

O‘qituvchi dars davomida to‘g‘ri va noto‘g‘ri qarorlarni tahlil qiladi hamda o‘quvchilar bilan muhokama olib boradi va o‘quvchilar qaysi qoidalarga rioya qilish muhimligini yozib chiqadilar va ularni sinf bilan baham ko‘radilar. Natijada o‘quvchilarning internet xavfsizligi bo‘yicha bilim darajasi oshadilar, ular shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalarini amaliy o‘rganadilar va o‘zlarining internetdagi xatti-harakatlarini tahlil qilishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, biz o‘quvchilarga mustaqil ishlashi uchun vazifalar berishimiz kerak. Masalan, o‘quvchilar o‘z oilalariga internet xavfsizligi bo‘yicha 5 ta muhim qoida tushuntirib berishadi va ularning fikrlarini yozib kelishadi [6].

Viktorina va test o‘yinlari orqali axborot xavfsizligi bo‘yicha savol-javob tarzidagi o‘yinlar o‘tkaziladigan dars mashg‘ulotlarini tashkil etish mumkin bunga kerakli vositalar quyidagilar bo‘lishi mumkin.

- Test savollari va javob variantlari yozilgan kartochkalar.
- Doska va markerlar yoki interaktiv doska.
- Mobil qurilmalar yoki kompyuterlar (onlayn test uchun).

Darsning o‘tilishiga qaraydigan bo‘lsak kirish qismida o‘qituvchi internet xavfsizligi bo‘yicha asosiy tushunchalarni o‘quvchilarga eslatib o‘tadi va o‘quvchilarga internet xavfsizligi bo‘yicha turli savollar beriladi. Masalan,“Shaxsiy parolingizni kimlar bilan bo‘lishishingiz mumkin?” Bunda o‘quvchilar javob variantlari orasidan to‘g‘ri javobni belgilaydilar. O‘quvchilarni yana bir boshqa usul yordamida baholash mumkin “Jamoaviy viktorina”, bunda esa o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, ularga turli test savollari taqdim etiladi, har bir to‘g‘ri javob uchun ball beriladi, natijada eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi [7].

Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilar javoblarini tahlil qiladi va xatolar bo‘yicha tushuntirish beradi. O‘quvchilar o‘yin davomida o‘rganilgan qoidalarni umumlashtiradilar va internet xavfsizligi bo‘yicha eng muhim maslahatlarni yozib boradilar. Natijada o‘quvchilarning internet xavfsizligi bo‘yicha bilimlari test orqali baholanadi. Bunday interaktiv usulda o‘rganish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Bu esa dars davomida o‘quvchilar internetda xavfsiz harakat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishga olib keladi.

O‘quvchilarga mustaqil ishlashi uchun vazifalar bersak, masalan, o‘quvchilar o‘zlari uchun internet xavfsizligi bo‘yicha 5 ta savoldan iborat test tayyorlab kelib, sinfda bir-birlari bilan baham ko‘rishsa, yanada bilimlarini mustahkamlaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, biz axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus o‘yinlar ishlab chiqishimiz mum-kin. Masalan “Jamoaviy o‘yinlar”, “Xavfsiz internet sarguzashti”, “Kim haqli?” va boshqalarni aytish mumkin [8].

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda ta’lim berish jarayonida o‘yinlar asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari orqali axborot xavfsizligi tushunchalarini o‘rgatish an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq bo‘ldi. O‘quvchilarning qiziqishi ortdi, ular internetdagi xavflarni aniqlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsiz internet muhitini yaratish bo‘yicha bilim oldilar. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tajriba sinfidagi o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlari nazorat sinfiga nisbatan 30%ga yuqori bo‘ldi. Bundan tashqari, o‘yin elementlari qo‘shilgan dars jarayonlari o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning bilimlarini uzoq muddatli eslab qolishlariga yordam berdi. O‘yin davomida o‘quvchilar turli real hayotiy vaziyatlarni tahlil qildilar va axborot xavfsizligini ta’minlash uchun qanday choralar ko‘rish lozimligini amaliy o‘rganishdi. Tajribaviy guruhda kuzatilgan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning internet xavfsizligi bo‘yicha xabardorligi 40%ga oshdi, axborot xavfsizligi qoidalarini kundalik hayotda qo‘llash darajasi 25%ga ko‘tarildi, Jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari yaxshilandi [9]. Bularning barchasi ta’limda darslarni o‘yinlar asosida tashkil etish internet xavfsizligi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashda samarali ekanligini isbotlaydi.

Xulosa. Axborot xavfsizligi mavzusini boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanlar orqali interakiv usullardan, o‘yinlardan foydalanib o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ulardagi texnologik madaniyat va mustaqil fikrlashni ham rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli boshlang‘ich sinflar uchun axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus o‘yin darslari ishlab chiqish kerak. Bu borada o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar tayyorlanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa ta’limda axborot xavfsizligi mavzusini chuqurroq integratsiya qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Xo‘jamqulov U. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini axborot xurujlaridan himoya qilish va uning shartlari. “Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar” mavzusidagi V respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, I kitob, NamDU, 2020, 124-bet.

(2). Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы. “Медиаобразование”, 2005, № 1, с. 32.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (2023). Raqamli xavfsizlik bo‘yicha strategiya.

(4). Mamatov O. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik.psixologik xavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari. Namangan, 2008.

(5). https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/journal/20240426_CO26_2.pdf?utm_source=chatgpt.com

(6). https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-28-07-42-52_414973350dd7725259dfb210796e3303.pdf?utm_source=chatgpt.com

(7). https://ahaslides.com/uz/blog/role-playing-game/

(8).https://cyberleninka.ru/article/n/texnologiya-fani-amaliy-mashg-ulotlarida-rolli-va-ishbop-o-yinlardan-foydalanish-metodikasi/viewer

Saidvaliyeva Dilafruz Ravshanovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti; dilravshanovna@icloud.com)

PODKASTLARNI TINGLAB TUSHUNISHNING TA’SIRI: METODOLOGIYANI BAHOLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqola Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalarining ingliz tilini o‘rganishda podkastdan foydalanishda ingliz tilini ikkinchi til (ESL) sifatida qabul qilishini o‘rganadi. Podkasting bu turli mavzulardagi ko‘p sonli podkastlarga ega bo‘lgan axborotni yetkazib berish vositasi. Podkastlarning ta’limga oid afzalliklari ko‘plab mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan, ammo bu g‘oya hali ham keng tarqalgan. Joriy tadqiqotda barcha ishtirokchilar podkastlar, ularning til ko‘nikmalarini yaxshilangandi, deb topildi. Natijalarning aksariyati juda ta’sirli bo‘lsa-da, ba’zi muammolarga yuz kelindi. Ushbu muammolarni o‘qitish va o‘rganishga ta’siri muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: podkastlar, tinglab tushunish, baholash, baholash, tinglash qobiliyatlari, tinglash qobiliyati.*

ВЛИЯНИЕ ПОДКАСТОВ НА ПОНИМАНИЕ И СЛУХ: ОЦЕНКА МЕТОДОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье исследуется восприятие студентами Ташкентского университета информационных технологий английского как второго языка (ESL) при использовании подкастинга при изучении английского языка. Подкастинг – это средство доставки информации с большим количеством подкастов на различные темы. Образовательная польза подкастов исследовалась многими экспертами, однако эта идея до сих пор не получила широкого распространения. В текущем исследовании все участники согласились, что подкасты улучшили их языковые навыки.*